



UDK:37.01

Behzodjon SOBIROV,

*Vazirlik huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi*

PhD G'. Otamurodov taqrizi asosida

OLIIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda talabalarining nazariy bilim, amaliy ko'nikmalarini shakllantirish tuzilmasi, ularning ilmiy dunyoqarashlarini kengaytirish, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida talabalarining nazariy bilim, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qo'yiladigan tizimli, ilmiylik va izchillik xossalarini mujassam etgan o'quv materiallarining o'zaro ta'siri, muvofiqlik, vizual o'qitish, ta'lim muammolarini ta'minlash, mustaqil ta'lim olish, o'quv materialini tarqatish, qiziqitirish, nazariyani amaliyot bilan bog'lash tamoyillari keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Talaba, amaliyot, material, vizual o'qitish, Oliy ta'lim, interfaol, ko'nikma, bilim, texnologiya, mustaqil ta'lim, internet, axborot, nazariya.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье подробно освещены структура формирования теоретических знаний и практических навыков студентов в развитии системы высшего образования, расширение их научного мировоззрения, взаимодействие учебных материалов, объединяющих системность, научность и последовательность на основе современных информационных технологий, соответствие и визуальное обучение, обеспечение образовательных задач, самостоятельное обучение, распространение учебных материалов, мотивация, а также принципы связи теории с практикой.

Ключевые слова: Студент, практика, материал, визуальная подготовка, военное образование, интерактив, умение, знания, технологии, самостоятельное обучение, интернет, информация, теория.

USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Annotation

This article covers in detail the structure of formation of theoretical knowledge and practical skills of students in the development of the higher education system, expansion of their scientific worldview, interaction of educational materials that combine systematicity, scientific nature and consistency based on modern information technologies, compliance and visual learning, provision of educational tasks, independent learning, distribution of educational materials, motivation, as well as principles of connection of theory with practice.

Key words: Student, practice, material, visual training, military education, interactive, skill, knowledge, technology, independent learning, internet, information, theory.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" PF-27-son Farmonida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ilmiy dunyo qarashlarini kengaytirish hamda ilmiy fikrlashlarini yuqori saviyada tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgan. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish va ta'limning sifat bosqichi samaradorligi bu Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yilidagi uzluksiz ta'lim tizimining tobora takomillashib borayotgan mavjud bilimlar bilan yosh avlodni tanishtirish, ularning nazariy bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalar hosil qilish, yosh avlodni Oliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni ko'rishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buyuk allomalarning ma'naviy ta'rixi va ular qoldirgan merosi, madaniyati, ma'naviyati asoslari, chuqur ildizlarini o'rganish va ulardan keyingi davrda pedagogik rivojlanish yo'nalishida foydalanishga bo'lgan qiziqishi asosida kelajak avlodni

tarbiyalashdagi o'z taraqqiyotini belgilovchi omillar yuzaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sohalar bo'yicha tashkil etiladigan faoliyat samaradorligini quyidagi ko'rsatkich xossalari yordamida baholash mumkin:

maqsadni aniqlashtirish va unga erishish imkonini beradigan vazifalarni belgilash;

zarur ish sharoitlarini yaratish;

mehnat unumdorligini ta'minlash;

sarflanayotgan vaqtni tejash; samarali vositalardan foydalanish;

faoliyatni tashkil etishda metodlarni to'g'ri tanlash;

shaxsning faolligiga erishish; mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish;

shaxs imkoniyatlarini muayyan nuqtaga yo'naltirish;

mehnat va dam olish o'rtasida o'zaro mutanosiblikni yuzaga keltirish va b.sh.

Oliy ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirishda bir qator omillar muhim o'rin tutadi. Jumladan:

Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda ob'ektiv va sub'ektiv omillarning mavjudligi (ularning jarayonga ko'rsatadigan ta'siri inobatga olinishi lozimligi);

Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda moddiy shart-sharoitning yaratilganligi;

O'quv jarayonining o'quv-metodik ta'minoti - darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar, yo'riqnomalar, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar, ma'lumotnomalar, masalalar va misollar to'plami, laboratoriya ishlanmalari, shuningdek, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlanganligi kabi ob'ektiv hamda pedagoglarning kasbiy mahorat va yetarlicha ish tajribasiga egaliklari;

bilim darajalarining yuqoriligi;

o'z ustilarida doimiy izlanishlari;

ilg'or xorijiy tajribalar bilan izchil tanishib borishlari;

faoliyatga nisbatan ijodiy yondashishlari;

shaxsiy rivojlanish dasturiga egaliklari kabi sub'ektiv omillarning mavjud bo'lishi taqozo etiladi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim vositalari sifatida axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Zero, axborotlashgan jamiyatda bu turdagi texnologiyalar ta'lim oluvchilarga o'quv axborotlarini muvaffaqiyatli yetkazib berishda o'ta samarali vositalardan biri sifatida baholanmoqda. Axborot texnologiyalari bir vaqtning o'zida o'quv materiallarini og'zaki, ko'rgazmali hamda amaliy tarzda yoritish imkoniyatiga ega. Masalan, multimediyali dasturlarda asosiy ma'lumotlar ovoz uzatish qurilmasi yordamida og'zaki tarzda bayon etilsa, tasvirlarni namoyish etish qurilmasi vositasida ko'rgazmali shaklda ifodalanadi. Ko'nikma va malakalarni hosil qilish, rivojlantirish taqozo etiladigan vaziyatlarda esa imitatsion trenejyorlar ta'lim oluvchida muayyan amaliy harakatlarni tashkil etish orqali ularga ega bo'lishlariga ko'maklashadi. Qolaversa, ta'lim oluvchi axborot texnologiyalari yordamida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda o'zlashtirishga ulgurilmagan ma'lumotlar bilan qayta tanishib chiqishi mumkin bo'ladi. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari Internet tarmog'i orqali o'rganilayotgan mavzuga doir yangi ma'lumotlarni izlash, muhimligi, zarurligi, amaliy ahamiyatiga ko'ra samaralash, qayta ishlash hamda ulardan maqsadli foydalanish imkoniyatini yaratishi bilan didaktik ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalaridan ta'limiy maqsadlarda foydalanishning yana bir afzalligi - bu ular orqali o'quv ma'lumotlarini faqat auditoriya sharoitidagina emas, balki istalgan makonda olish mumkinligi bilan belgilanadi. Bu esa ta'lim oluvchiga mustaqil o'qib-o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalaridan nazariy bilimlarni berish (ma'ruza), o'quv topshiriqlarini berish (amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi), ijodiy topshiriqlarni bajarish (mustaqil ta'lim), ta'lim oluvchilarning bilimlarini baholash (nazorat) maqsadlarida foydalanilmoqda.

Oliy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligiga erishish quyidagi tamoyillar asosida faoliyat yuritishni taqozo etadi:

Ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan tizimli yondashuv.

O'quv faoliyatini olib borishga nisbatan ijodiy yondashuv.

Ta'lim jarayonining izchil, uzluksiz va maqsadga muvofiq tashkil etilishi.

Ta'lim jarayonining insonparvarlik, demokratik, dialektik va dinamik xususiyatlar kasb etishi.

Oliy ta'limni tashkil etishda talabalarining mustaqil faoliyat yuritishlariga imkon yaratish.

"Oliy ta'limda menejment" fani darslarida o'qituvchi va talabalar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish.

Oliy ta'limni tashkil etishda talabalarining yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlari, hayotiy tajribalarini inobatga olish.

Ta'lim jarayonida elektron o'quv qo'llanmaning imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

Tadqiqotni olib borish jarayonida ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirishda quyidagi holatlarning ustuvor o'rin tutishiga ishonch hosil qildik:

Har bir mashg'ulotning mohiyatidan kelib chiqqan holda original loyihani ishlab chiqish.

Dars jarayonini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy va xususiy (juz'iy) maqsadlarning aniq belgilanishiga erishish.

Kutilayotgan natijani oldindan bashoratlash.

Maqsadning amalga oshirishini ta'minlovchi vazifalarning belgilanishi.

Mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchi va talabalar egallashi lozim bo'lgan o'rin (pozitsiya)larni aniq belgilash.

Mashg'ulot mazmunini puxta yoritilishiga erishish.

Elektron o'quv qo'llanmaning mashg'ulot mazmuniga muvofiq va to'g'ri tanlanishiga erishish.

Talabalarining faoliyatini nazorat qilib borishga imkon beruvchi topshiriqlar tizimini shakllantirish.

Kutilgan natijaning kafolatlanganligini yakuniy baholash.

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarining oliy o'quv muassasalarida Oliy ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati quyidagilarda aks etadi:

- pedagog tomonidan berilayotgan nazariy ma'lumotlar (masalan, o'q otish qoidalari, avtomatni tozalash, moylash va saqlash, parchalanuvchi qo'l granatalarini ishlatish, nishonni mo'ljalga olish, o'q otish traektoriyasini belgilashga oid bilimlar)ning kompyuter yoki tasvir uzatish vositasi yordamida ko'rgazmali namoyish etilishi;

- Oliy bilimlarning kompyuter yoki tasvir uzatish vositasi yordamida og'zaki bayon (verbal) va tasviriy ravishda bir vaqtda uzatilishi;

- bo'lajak Oliy ta'lim o'qituvchilarida safda yurish, Oliy operatsiyalarni o'tkazish maqsadida maxsus xaritalarni tayyorlash, Oliy qurol-aslahalarni ishlatish, o'q otish, mudofaa istehkomlarini barpo etishga oid amaliy ko'nikma hosil qilish, mavjud ko'nikmalarning malakalarga aylanishini ta'minlashda imitatsion muhitni yaratish;

- qanday muhit (auditoriya yoki auditoriyadan tashqari)da bo'lishlaridan qat'iy nazar bo'lajak Oliy ta'lim o'qituvchilarining Oliy bilim asoslarini o'zlashtirishlari va mustaqil ta'lim olishlari uchun qulay sharoit yaratish;

- auditoriyalarni o'quv-meyoriy hujjatlar, yo'riqnomalar, ko'rsatmalar bilan jihozlash, talabalarini o'quv topshiriqlari (muammoli vaziyatlar, muayyan Oliy harakatlarni yuzaga keltirish, Oliy buyruqlarni bajarishga oid mashqlar, masala va test materiallari) bilan qurollantirish;

- ta'lim jarayonida talabalarining o'quv faolliklarini oshirish (savolarga javob berishda fikrlarini tasviriy vositalar yordamida asoslash, amaliy mashg'ulotlarida topshiriqni amaliy-imitatsion tarzda bajarish, mustaqil ta'lim topshiriqlarini kompyuter texnologiyasi yordamida taqdimot, elektron yo'riqnoma, jurnal, sxema, jadval hamda xarita ko'rinishida bajarilishiga erishish);

- Oliy ta'lim asoslariga oid o'quv materiallarining talabalar tomonidan o'zlashtirilishini nazorat qilib borish;

- talabalarining Oliy ta'lim asoslariga oid bilim, ko'nikma va malakalarini tashxislash va baholash;

- Oliy ta'lim fanlari bo'yicha o'quv semestrlarining yakuni to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, Oliy ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali pedagog va bo'lajak Oliy

ta'lim o'qituvchilari quyidagi metodik ta'minotga ega bo'ladilar (1-rasm).



1-rasm. Oliy ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini

qo'llash orqali yaratiladigan metodik ta'minot
Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Tadqiqotni olib borish davrida "Oliy ta'limda menejment" fani bo'yicha quyidagi elektron resurslar yaratildi:

1. Oliy ta'limda menejmentining vazifasi, jangovar xususiyatlari, avtomat bilan ishlashning xavfsizlik qoidalarini yorituvchi elektron o'quv plakatlar.

2. Oliy ta'limda menejmentining asosiy mexanizmlari.

3. Oliy ta'limda menejmentining o'quv va o'quv-uslubiy materiallari.

4. Oliy ta'limda menejmentining ma'lumot beruvchi elektron o'quv majmualar.

5. Oliy ta'limda menejmentining elektron pal'tormasi.

7. Amaliy masalalar, savollar hamda sinov topshiriqlarining elektron variantlari.

8. "Oliy ta'limda menejmentining" nomli elektron darslik va o'quv qo'llanma.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, ayni vaqtda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda keng ko'lamda qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Ta'lim va axborot texnologiyalari kun sayin rivojlanib, mamlakatda axborotlashtirish jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlantirish davrida ta'lim sohasida axborot resurslarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda, zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligiga erishish muayyan tamoyillarga muvofiq izchil va uzluksiz tashkil etiluvchi bosqichlarda ro'y beradi. Har bir bosqichda muayyan vazifalar hal qilinadi va ular umumiy maqsadga yo'naltiriladi.

ADABIYOTLAR

1. Байденко В.Б. Компетенции в профессиональном образовании (к освоению компетентностного подхода) // Высшее образование в России. - №11. - 2004. - С. 6.
2. Зеер Э.Ф., Сыманюк Э.Э. Компетентностный подход как фактор реализации инновационного образования // Ж. Образование и наука. Известия УрФО РАО. - Екатеринбург: 2011. - №87 (8). - С. 3-18.
3. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишининг илмий-назарий асослари / Монография. - Т.: Фан, 2007. - 160 б.
4. Кузьмина О.С. Подготовка педагогов к работе в условиях инклюзивного образования: Дис. ... канд. пед. наук. - Омск, 2015.
5. Кузьмин Н.В. Повышение квалификации на основе дистанционного обучения // Ж. Высшее образование в России. - М.: 2004. - № 5. - С. 166-167.
6. Наук Б.Г., Тесленко В.И. Формирование интеркультурной компетентности у будущего учителя в России и Германии // Современное естественнонаучное образование: достижения и инновации: материалы 6-й Всерос. науч.-метод. конф. / Отв. ред. Т.В.Голикова. - 2013. - С. 210-214.
7. Пермяков О.Е. Иерархическая модель социально-профессиональной компетентности и подходы к формированию требований к результатам подготовки студентов // Ж. Вестник Адыгейского государственного университета. - Майкоп: 2009. - №1. - С. 105-112